

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INVESTITSIYALAR VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI



"TASDIQLAYMAN"

Namangan davlat
pedagogika instituti rektori
B.E. Xusanov

” _____ 2026-yil

**SUHBAT (IJODIY) IMTIHONLAR DASTURI VA BOHALASH
MEZONI**

**KIRISH IMTIHONLARIDA "TARIX" FANI MAVJUD BARCHA
TURDAGI YO'NALISHLAR (KO'ZI OJIZLAR) UCHUN DASTUR**
(ta'lim yo'nalishlariga mos fan bo'yicha)

Ushbu dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil "___" dagi ___ - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchilar: S.Botirova – Namangan davlat pedagogika instituti "Falsafiy va tarixiy fanlar" kafedrasini mudiri, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

B.Ataxanov – Namangan davlat pedagogika instituti "Falsafiy va tarixiy fanlar" kafedrasini dotsenti, Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Taqrizchilar: Z.Xaydarov – Namangan davlat pedagogika instituti "Falsafiy va tarixiy fanlar" kafedrasini dotsenti, Tarix fanlari nomzodi.
N.G'ofurov – Namangan davlat universiteti "Tarix" kafedrasini dotsenti, Tarix fanlari nomzodi

Mazkur dastur Namangan davlat pedagogika instituti O'quv-uslubiy Kengashining 2026-yil "___" _____-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

KIRISH

Mazkur dastur ko'zi o'jiz abituriyentlar uchun mo'ljallangan bo'lib, Unda O'zbekiston va Jahon tarixi fanlari ma'lumotlar o'rin olgan bo'lib, "Qadimgi O'rta Osiyo tarixi", "Qadimgi davr tarixi", "Antik davr tarixi", "O'rta asrlar tarixi", "Buyuk-geografik kashfiyotlar", "Yevropa uyg'onish davri", "Yevropa yangi va eng yangi davr tarixi", "O'zbekiston tarixi", "Yangi va eng yangi davrda O'zbekiston tarixi" davrlardan abituriyentlarning amaliy ko'nikma va malakalarini aniqlashda foydalaniladi.

Fanning maqsadi va vazifalari

Tarix (fani) bo'yicha tuzilgan ushbu dastur bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlar abituriyentlarning shu sohada bo'lgan qiziqishi, bilim darajasi va kelajakda tarix ta'limi kasbi bo'yicha faoliyat yuritish kompetentsiyalarini belgilash maqsadida ishlab chiqilgan va abituriyentlarning tarix ta'limi sohasida nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olishi bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Tarixi fani bo'yicha tuzilgan ushbu dastur ikki qismdan iborat bo'lib, uning birinchi qismi O'zbekiston tarixiga bag'ishlangan. Dastur ko'zi o'jiz abituriyentlar uchun mo'ljallangan bo'lib, Davlat ta'lim standartlari talablari asosida tuzilgan. O'zbekiston tarixi qismida asosan xalqimizning eng qadimgi zamonlardan to hozirgi kunlarga bosib o'tgan uzoq va murakkab tarixiy yo'lini, eng yangi tarixini hamda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy hayotini xolisona o'rganish, mamlakatimizning demokratlashtirish va iqtisodiyotni bozor tamoyillari, jahon hamjamiyatiga har tomonlama integratsiyasini chuqurlashtirish, xorijiy mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotini ilmiy va amaliy ahamiyati kabi mavzular o'rin olganki, ushbu mavzular abituriyentlar bilimini baholashda muhim o'rin tutadi.

Ikkinchi qismi Jahon tarixiga bag'ishlangan. Dastur ko'zi o'jiz abituriyentlar uchun mo'ljallangan bo'lib, Davlat ta'lim standartlari talablari asosida tuzilgan. Bunda asosan eng qadimgi zamonlardan to hozirgi kunlarga bosib o'tgan uzoq va murakkab tarixiy yo'lini, eng yangi tarixini hamda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy hayotini xolisona o'rganish, xorijiy mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotini ilmiy va amaliy ahamiyati kabi mavzular o'rin olganki, ushbu mavzular abituriyentlar bilimini baholashda muhim o'rin tutadi.

Ushbu dastur ko'zi o'jiz abituriyentlar uchun mo'ljallangan. Ushbu dastur bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlar abituriyentlarning Tarix fanlari bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi

Abituriyentning bilimiga qo'yiladigan talablar

O'zbekiston tarixi fanidan imtihonni bor boshqa ta'lim yo'namishlari bo'yicha imtihon topshiruvchi abituriyentlar O'zbekiston tarixidan: O'zbekiston tarixini o'rganishdagi asosiy nazariy metodologik masalalar. Markaziy Osiyo ibtidoiy jamiyat davrida. Urug'chilik jamoalarining makonlari. Moddiy va ma'naviy

madaniyat. Markaziy Osiyo hududida ilk davlatchilikning vujudga kelishi. Qadimgi Sug'diyona (So'g'd), Baktريا, Xorazm. "Avesto". Markaziy Osiyo xalqlarining Ahamoniyarga qarshi mustaqillik uchun kurashi. Makedoniyalik Aleksandr istilosi va Spitamen qo'zg'oloni. O'rta Osiyo Salavkiylar davlati va Yunon-Baktريا davlati tarkibida. Qang'. Parkana. Buyuk Ipak yo'lining paydo bo'lishi va uning roli. Kushon podsholigi. Ilk o'rta asrlar davlatlarining shakllanishi (Eftaliylar davlati, Turk xoqonligi). O'rta Osiyo xalqlarining arablar istilosiga qarshi kurashi. Movarounnahrda islom dinining yoyilishi. Movarounnahr Somoniylar davrida. G'aznaviylar, Qoraxoniylar, Saljuqiylar davlatlari. O'zbek xalqlarining shakllanish jarayoni. Qoraxoniylar bosqini va Xorazmshoh-anushteginlar davlatining yuksalishi. XI-XII asrlarda Markaziy Osiyoning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi xususiyatlar. O'rta Osiyoda uyg'onish davrida fan va madaniyat. Mo'g'ul bosqinchilariga qarshi Markaziy Osiyo xalqlarining kurashi. Movarounnahr Chig'atoy ulusi tarkibida. Amir Temur davlati. Movarounnahr Temuriylar davrida.

Abituriyent. Shayboniylar va Ashtarxoniylar davlatlari. XVII-XIX asr birinchi yarmida siyosiy hayot. O'rta Osiyo xonliklarining ma'muriy boshqaruv tizimi, aholining etnik va ijtimoiy tarkibi, xo'jaligi. Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklarining rivojlanish xususiyatlari. XVI-XIX asrning birinchi yarmida qoraqalpoqlar. Qoraqalpoq va boshqa turkiy ko'chmanchi qabilalar yozma tarixiy manbalarda. Qoraqalpoqlarning shakllanish jarayonlari. XVIII-XIX asrlarda quy Sirdaryo qoraqalpoqlari. Qoraqalpoq madaniyati. O'rta Osiyo xonliklarining savdo-diplomatik aloqalari. XVI-XIX asr birinchi yarmida O'rta Osiyo xalqlari madaniyati. Ingliz-rus raqobati. O'rta Osiyoga Rossiya imperiyasining istilochilik yurishlari. Turkiston general-gubernatorligining tashkil topishi. O'rta Osiyoni Rossiya tomonidan bosib olinishining iqtisodiy va siyosiy oqibatlari. 1873-1876 yillarda Qo'qon xonligidagi xalq qo'zg'oloni. Turkistonning agrar va sanoat rivojlanishidagi muammolar va Rossiya imperiyasi siyosati. XIX asr oxirida Turkistonda milliy ozodlik kurashlari. XIX asr oxiri-XX asr boshida Turkiston xalqlari madaniyati. XX asr boshlarida Turkistonda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayot. Milliy ma'rifatparvarlik harakati. Jadidchilik. Turkiston birinchi jahon urushi yillarida. 1916 yil milliy ozodlik kurashi. 1917 yil siyosiy jarayonlarning Turkistonga ko'rsatgan ta'siri. Turkistonda sovet tuzumini o'rnatilishi. Turkiston muxtoriyati. Sovetlarga qarshi milliy ozodlik harakatlari. 1917-1924 yillarda Buxoro va Xiva xonligidagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy ahvol. 1924-yil O'rta Osiyoda o'tkazilgan milliy davlat chegaralanishidagi muammo va ziddiyatlar. O'zbekiston totalitar tuzum sharoitida - ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot. Siyosiy qatag'onlar va ularning oqibati. Qoraqalpog'iston ASSRning O'zSSR tarkibiga kiritilishi. O'zbekiston xalqlarining fashizmga qarshi kurashdagi ishtiroki. 1946-1985 yillarda O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish: yutuqlar va ziddiyatlar. Milliy ziyolilarni qatag'on qilinishi. Madaniy hayotda "sotsialistik realizm"ni hukmronligi. O'zbekiston "Qayta qurish" yillarida. O'zbekistonning mustaqillikka erishishi - O'zbekiston tarixidagi yangi tarixiy bosqich. O'zbekiston Respublikasi suvereniteti va mustaqilligi. O'zbekistonda mustaqil demokratik davlat sifatida siyosiy tuzumning shakllanishi. O'zbekiston Konstitutsiyasining

qabul qilinishi va uning tarixiy ahamiyati. Mustaqil Qoraqalpog'iston tarixi, uning davlat tuzumi. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini qurishga qaratilgan siyosat. Iqtisodiy islohotlar: bosqichlari va natijalari. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri va uni bartaraf qilishga qaratilgan 2009-2012 yillarga mo'ljallangan dasturini amalga oshirilishi. O'zbekistonning ma'naviy hayoti. O'zbekistonning jahonda va MDHda egallagan mavqei. Mustaqil O'zbekistonning tashqi siyosati. O'zbekistonning xalqaro tashkilotlarda ishtiroki. O'zbekistonning xalqaro terrorizmga qarshi kurashdagi ishtiroki. O'zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlari. Mustaqil O'zbekiston-demokratik islohotlar va fuqarolik jamiyat asoslarini shakllanishi yo'lida. 1990-2020 yillarda jahon mamlakatlarining integratsiyalashuvi jarayonlari. Osiyoda mustaqil davlatlarning tashkil topishi haqida bilimlarga ega bo'lishi lozim.

Jahon tarixi: Qadimgi dunyo tarixi: Ibtidoiy jamiyat va insoniyatning paydo bo'lishi, Qadimgi Sharq sivilizatsiyalari (Misr va Mesopotamiya), Qadimgi Hindiston sivilizatsiyasi, Qadimgi Xitoy sivilizatsiyasi, Qadimgi Yunoniston: polislar va madaniyat, Yunon-fors urushlari va Aleksandr Makedonskiy davlati, Qadimgi Rim Respublikasining tashkil topishi va rivojlanishi, Rim imperiyasi va uning yuksalishi, Qadimgi dunyo madaniyati, fan va dinlar, Qadimgi dunyoning inqirozi va G'arbiy Rim imperiyasining qulashi. O'rta asrlar tarixi: Ilk o'rta asrlar: Buyuk ko'chishlar va yangi davlatlar, Vizantiya imperiyasi, Arab xalifaligi va islom sivilizatsiyasi, Yevropada feodal tuzum, Salib yurishlari, Mo'g'ullar imperiyasi va uning bosqinlari, O'rta asrlarda Yevropa shaharlari va savdo, Hindiston va Xitoy o'rta asrlarda, O'rta asrlar madaniyati, ilm-fani va universitetlar, O'rta asrlarning yakuni va Uyg'onish davriga o'tish. Yangi tarix (XVI-XIX asrning birinchi yarmi): Buyuk geografik kashfiyotlar, Yevropada Uyg'onish davri va gumanizm, Reformatsiya va Kontreformatsiya, Angliyada burjua inqilobi, Amerika Qo'shma Shtatlarining tashkil topishi, Fransiya burjua inqilobi, Napoleon Bonapart va Napoleon urushlari, Sanoat inqilobi va uning oqibatlari, XIX asrning birinchi yarmida Yevropa davlatlari, Lotin Amerikasi mamlakatlarining mustaqillikka erishishi. Eng yangi tarix (XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr): XIX asrning ikkinchi yarmida sanoat taraqqiyoti va monopoliyalari, Germaniya va Italiyaning birlashuvi, Mustamlakachilik siyosati va dunyoning bo'linishi, Birinchi jahon urushi, Urushdan keyingi xalqaro munosabatlar va Versal-Vashington tizimi, Ikkinchi jahon urushi, Sovuq urush va ikki qutbli dunyoning shakllanishi, BM'Tning tashkil topishi va xalqaro tashkilotlar, XX asrning ikkinchi yarmida Osiyo va Afrika mamlakatlarining mustaqillikka erishishi, XX asr oxirida jahon taraqqiyoti va globallashuv. Eng zamonaviy tarix (XXI asr): XXI asr boshida xalqaro munosabatlar, Globallashuv va uning ijobiy hamda salbiy jihatlari, Axborot texnologiyalari va raqamli inqilob, Jahon iqtisodiyotining rivojlanish tendensiyalari, Xalqaro terrorizm va xavfsizlik muammolari, Ekologik muammolar va iqlim o'zgarishi, Yevropa Itifoqi va zamonaviy integratsiya jarayonlari, Osiyo-Tinch okeani mintaqasining jahon siyosati va iqtisodiyotidagi o'rni, Zamonaviy fan, texnologiya va innovatsiyalar, XXI asrda global muammolar va ularning yechimlari haqida bilimlarga ega bo'lishi lozim.

IJODIY (KASBIY) IMTIHON NATIJALARINI BAHOLASHMEZONI

Ko'zi o'jizlar uchun ijodiy imtihon 5 baholik tizimda baholanadi.

Ko'zi o'jizlar uchun kirish imtihonlari og'zaki tarzda o'tkaziladi va har bir imtihonbiletiga uchta nazar savol kiritiladi.

Ijodiy imtihonni baholashda quyidagi mezonlardan kelib chiqiladi:

1. Abituriyentning javobi 5 ("a"lo")ga baholanishi uchun:

- Abituriyent tarixning qadimgi davridan to hozirgi kun tarixigacha bo'lgan bosqichni mukammal bilishi lozim;
- Har bir tarixiy voqealar aniq tarixiy dalillarga asoslanishi kerak;
- Javoblarda tarixiy voqealar bo'lib o'tgan jo'rg'rofiy hudud ham aniq ifodalanishi zarur;
- Javoblarda keraksiz har xil gaplardan ko'ra, ko'proq aniq faktlar hisobga olinadi;
- Mustaqillik davri tarixiga, mamlakatimizning ichki va tashqi siyosatiga, madaniyatiga, iqtisodiga, huquqiga tegishli savollarga yanada aniqroq javob berilishi kerak;
- Qo'shimcha savollarga ham to'liq va to'g'ri javob berish lozim.

2. Abituriyentning javobi 4 («yaxshi»)ga baholanishi uchun:

- Tarixning hamma bosqichlari bo'yicha umumiy bilimiga ega bo'lishi va unidatli izohlay olishi lozim;
- Tarixni arxeologik va etnografik materiallar bilan qo'shib asoslay olishi kerak;
- Tarixiy davrlashtirish bosqichlarini aniq tushuntira olishi lozim;
- Mustaqil O'zbekiston Respublikasining eng yangi tarixi (1991-2020 yillar) bilan bog'liq voqealariga aniq javob bera olishi kerak;
- Biror-bir tarixiy davrga tegishli berilgan qo'shimcha savolga aniq va puxta javob berilishi lozim.

3. Abituriyentning javobi 3 («o'rta»)ga baholanishi uchun:

- Abituriyent belgilangan savollarga maktab tarix fani dasturi bo'yicha umumiy tushunchaga ega bo'lib, javoblarni har tamonlama asoslanishga harakat qilishi kerak;
- Javoblarda har bir tarixiy davr fakt, manbalar, arxeologik materiallarga asoslanishi lozim;
- Javob berayotganda bo'lib o'tgan har bir tarixiy voqealarga aniqlik kiritilishi kerak, umumiy gaplar yoki taxminiy javoblardan uzoqroq bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

4. Abituriyentning javobi quyidagi hollarda 2 ("qoniqarsiz")ga baholanadi:

- Abituriyent tarixiy taraqqiyotning qadimgi davridan to hozirgi kunimizgacha bo'lgan tariximizni asoslay olmasa;
- Tarixiy davrlashtirish bosqichlaridan, davrlashtirish tarixidan etarlicha ma'lumotga ega bo'lmasa;

- Tarixiy voqealarni aniqligiga ishonchsizlik bilan javob bersa;
- Mustaqil O'zbekiston Respublikasining yangi tarixiga tegishli tarixiy voqealarni ifoda etuvchi javoblari maqsadga muvofiq deb topilmasa;
- Tarixiy mavzular bo'yicha berilgan qo'shimcha savollarga mujmallik va noaniqlik bilan javob berilsa.

Kasbiy (ijodiy) imtihon komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish

Kasbiy (ijodiy) imtihon komissiyasi faoliyati 2026-2027 o'quv yili qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi.

O'zbekiston tarixi fanidan sinovlar mavjud barcha turdagi ta'lim yo'nalishlar bo'yicha ijodiy (kasbiy) imtihon komissiyasi tarkibi odatda uch nafar a'zodan kam bo'lmagan holda tashkil etiladi.

Kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari uch kun muddatdan kechiktirilmagan holda e'lon qilinadi.

O'zbekiston tarixi fanidan sinovlar mavjud barcha turdagi ta'lim yo'nalishlar bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihon natijalaridan norozi abituriyentlarning murojaatlarini ko'rib chiqish bo'yicha apelatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Appelyatsiya komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish

Appelyatsiya komissiyasi kasbiy (ijodiy) imtihonni o'tkazgan oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi.

Abituriyent kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab, 24 soat ichida appelyatsiya komissiyasiga og'zaki yoki yozma shaklda murojaat etishi shart. Belgilangan muddatdan keyin murojaatlar qabul qilinmaydi.

Appelyatsiya komissiyasi abituriyentning faqat o'zining ishi bo'yicha bildirilgan murojaatini yuzma-yuz abituriyentning ishtirokida ko'rib chiqadi va yakuniy qarorni beradi.